YANGI O‘ZBEKISTONDA EL AZIZ, INSON QADRI AZIZ!

YANGI BEKOBOD

Toshkent viloyati Bekobod tumani ijtimoiy-siyosiy gazetasi

Gazeta 1931-yildan chiqa boshlagan

2026-yil 15-sentyabr, № 35 (8053)

XALQIMIZNING AZMU SHIJOATI VA QUDRATI, BUKILMAS IRODASI VA QAT’IYATI, MUSTAQIL TARAQQIYOTGA BO‘LGAN MUSTAHKAM ISHONCHI BUYUK MAQSADLARIMIZGA ERISHISHNING KAFOLATIDIR.

Shavkat MIRZIYOYEV



AHOLI BANDLIGI VA DAROMADINI OSHIRISH BO‘YICHA ISHLAR TANQIDIY TAHLIL QILINDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev hududlarda aholi bandligi va daromadini oshirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan kengaytirilgan yig‘ilish o‘tkazdi.

Ma’lumki, 3-sentyabr kuni davlatimiz rahbari raisligida kambag‘allikni qisqartirish va aholi daromadlarini oshirish bo‘yicha ishlarni yangi bosqichga olib chiqish masalalari yuzasidan videoselektor yig‘ilishi o‘tkazilgan edi. Unda hududlarda ishni tashkil etish tartibi tubdan o‘zgartirilib, asosiy vakolat va resurslarni tuman darajasiga tushirish belgilangandi.

Yangi tizimga muvofiq, har bir viloyat va tumanda hokim boshchiligida shtablar tashkil etilib, bandlik idoralari va iqtisodiy kompleks tashkilotlari odamlarni ish bilan ta’minlash va daromadini oshirish masalalarini joyning o‘zida hal qilishi lozim.

Yig‘ilishda ana shu vazifalar ijrosi, shtablar faoliyati va joylarda mavjud imkoniyatlardan foydalanish holati tanqidiy ko‘rib chiqildi.

Qayd etilganidek, barcha hududlarda shtablar ish boshladi. Ularning faoliyatini samarali tashkil etish uchun iqtisodiy kompleksdan har bir viloyatga 2 nafardan, jami 28 nafar mas’ul rahbar biriktirildi. Islohotlar shtabi, vazirliklar, banklar va mahalliy hokimliklar yangi tizim asosida ishni boshlagan.

Shu bilan birga, ayrim rahbarlar hali ham ishni kabinetdan turib tashkil etayotgani, mahallaga tushib, har bir oila va har bir korxonadagi haqiqiy holatni o‘rganmayotgani ko‘rsatib o‘tildi. Davlatimiz rahbari bunday yondashuv bilan natijaga erishib bo‘lmasligini ta’kidladi.

Hokimlar kambag‘allik masalasiga faqat ijtimoiy reyestr nuqtayi nazaridan qaramasligi zarurligi qayd etildi. Ijtimoiy reyestr aholini qo‘llab-quvvatlash vositasi, kambag‘allikni qisqartirish esa oilani barqaror daromad manbaiga bog‘lash, ish o‘rni, infratuzilma hamda sharoit yaratish bilan bog‘liq kompleks vazifadir.

Yig‘ilishda har bir tumanda tayyor imkoniyatlarni ishga solish orqali bandlikni oshirish mumkinligi aniq misollar asosida ko‘rsatib o‘tildi.

Jumladan, Qo‘shko‘pir tumanida 43 million yevroga qurilgan, 1 ming 300 ta ish o‘rniga mo‘ljallangan to‘qimachilik korxonasi yil boshidan buyon ishlamay turgani tanqid qilindi. Korxona faoliyati tiklansa, bank tomonidan krizis-menejer jalb etilib, u to‘liq quvvatga chiqarilishi mumkin.

Shu kabi 124 ta korxonaning 6 trillion so‘mlik aktivlariga qo‘yilgan cheklovlarni qayta ko‘rib chiqish va ularni bank boshqaruviga berish orqali 10 ming ish o‘rnini tiklash imkoniyati borligi qayd etildi.

Oqoltin tumanidagi “Oqoltin mega tekstil” korxonasi misolida ham banklar balansiga o‘tgan tayyor obyektlarni qismlarga bo‘lib sotish o‘rniga ularni qayta ishga tushirish orqali yuzlab odamlarni band qilish mumkinligi ko‘rsatildi.

Umuman, davlat banklari balansida 10 trillion so‘mlik 2,5 mingga yaqin mol-mulk mavjud. Ularni samarali ishga solish orqali 40 mingtagacha ish o‘rni tiklanishi mumkin.

Mutasaddilarga bir hafta muddatda qarzdorlik hisobiga banklar balansiga o‘tgan korxonalarni to‘liq xatlovdan o‘tkazish, yil yakuniga qadar ularni yaxlit ishlab chiqarish sifatida sotish yoki menejer tayinlab, faoliyatini tiklash choralarini ko‘rish topshirildi.

Qishloq tumanlarida ehtiyojmand oila a’zosini ishga olgan korxonalar uchun 1-oktyabrdan ushbu xodim bo‘yicha ijtimoiy soliq stavkasi 2 foiz bo‘lishi belgilandi.

Yig‘ilishda xususiy sektor imkoniyatlaridan samarali foydalanishga ham e’tibor qaratildi. Oqoltin tumanida tadbirkor tomonidan 880 o‘rinli xususiy maktab tashkil etilib, kambag‘al oilalarning 110 nafar farzandi bepul o‘qitilayotgani ijobiy misol sifatida keltirildi.

Ushbu tashabbusning muhim sharti shundaki, bepul ta’lim olayotgan bolaning ota-onasi ishga joylashishi, farzandining muntazam darsga qatnashini ta’minlashi kerak. Natijada ota-ona ishli bo‘ladi, farzand esa sifatli ta’lim oladi.

Hazorasp tumanidagi tikuvchilik korxonasida 400 ta bo‘sh ish o‘rni borligi, biroq bola parvarishi bilan bog‘liq sharoit yetarli emasligi sababli ko‘plab ayollar ishga chiqa olmayotgani qayd etildi. Korxona rahbari bog‘cha tashkil etish uchun yer ajratilsa, ayollar uchun ovqatlanish va transport sharoiti yaratishga tayyorligini bildirgan.

Shu munosabat bilan tadbirkorlar bog‘cha, maktab va texnikum tashkil etish bo‘yicha tayyor loyihalar taklifi bilan chiqib, ehtiyojmand oila farzandlarini bepul o‘qitmoqchi bo‘lsa, davlat yer uchastkalarini 1 million so‘m boshlang‘ich narx bilan auksionga chiqarishga tayyor ekani ta’kidlandi.

Aholi bandligini oshirishda servis sohasining imkoniyatlari ham muhokama qilindi. Ko‘p qavatli uylarning birinchi qavatida sartaroshxona, go‘zallik saloni, kichik do‘kon, atelye, poyabzal va maishiy texnika ustaxonasi kabi odamlarga qulay xizmat turlarini tashkil etish mumkin. Biroq amalda xonadonni noturar joyga o‘tkazish uchun ortiqcha tartiblar va ruxsatlar talab etiladi.

Shu bois, ko‘p kvartirali uylarning birinchi qavatidagi xonadonlarni noturar joy toifasiga o‘tkazmasdan, savdo va servis faoliyatiga moslashtirishga ruxsat berish taklif etildi. Bunda xabardor qilishning o‘zi yetarli bo‘ladi.

Mutasaddilarga bir oy muddatda bunday xonadonlarda tashkil etilishi mumkin bo‘lgan xizmat turlari ro‘yxati va xavfsizlik talablarini ishlab chiqish topshirildi.

Tuman va mahallalarning gavjum ko‘chalarida master-rejalar asosida tadbirkorlik loyihalarini joylashtirish, tarixiy shaharlar va turizm mahallalarida ko‘chalarni “eski shahar” uslubida ta’mirlab, mehmon uylari, savdo va servis shoxobchalarini ko‘paytirish vazifasi qo‘yildi.

Qishloq xo‘jaligi yo‘nalishida eski bog‘lar va qarovsiz yerlarni yangilash, har bir gektardan olinadigan daromadni oshirish muhimligi qayd etildi. Bu orqali yerdan samarali foydalanish, hosildorlikni ko‘paytirish va qishloq aholisi uchun qo‘shimcha manba yaratish mumkin.

Ko‘p qavatli uylar atrofidagi bo‘sh joylarni aniqlab, o‘zboshimchalik bilan egallangan hududlarni tartibga keltirish, umumiy foydalanishdagi bolalar maydonchalari, sport va fitness hududlari, yashil maydonlar tashkil etish hamda ko‘chalarni yoritish bo‘yicha topshiriqlar berildi.

Aholini sog‘lom turmush tarziga jalb etish, mahalla va ko‘chalarda ommaviy yurish, jismoniy mashqlar, ertalabki va kechki badantarbiya mashg‘ulotlarini yo‘lga qo‘yish muhimligi qayd etildi.

Maktab, texnikum, oliygoh va boshqa tashkilot binolarining bo‘sh xonalarida, asosiy xonalarning darsdan tashqari vaqtlarida yoshlar, ayollar va ishsiz fuqarolarni kasb-hunar hamda tillarga o‘qitish muhitini yaratish vazifasi belgilandi.

Yaqinda imzolangan Prezident farmoni bilan mahalla tizimi bilan ishlash bo‘yicha Bosh vazir o‘rinbosari lavozimi joriy etildi. Unga tayinlangan mas’ul rahbar oldiga hokimlar, tuman idoralari, “mahalla yettiligi” va banklar faoliyatini yagona tizimda muvofiqlashtirish, ular yuritayotgan elektron platformalarni birlashtirish vazifasi qo‘yildi.

Bundan buyon mahallaga tegishli masalalar bo‘yicha “yettilik”ni muvofiqlashtiruvchi rahbarlar tomonidan alohida-alohida yig‘ilishlar o‘tkazilishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Barcha masalalar haftada bir marta Bosh vazir o‘rinbosari boshchiligida barcha rahbarlar ishtirokida muhokama qilinadi.

Mamlakatimiz yetakchisi mahallada ishni to‘g‘ri tashkil etish, davlat siyosatini eng quyi bo‘g‘ingacha yetkazish va har bir oilani barqaror daromad manbaiga bog‘lash barcha darajadagi rahbarlar uchun eng muhim vazifa ekanini ta’kidladi.

Yig‘ilishda joylardagi islohotlar shtabi, hududlar rahbarlari, tuman va shahar hokimlari hamda mutasaddilarning hisobotlari eshitildi.

Sarvinoz SHERALIYEVA tayyorladi.

Jahon maydonida

KOREYA RESPUBLIKASINING YETAKCHI NASHRLARIDAN BIRI — “THE CHOSUN DAILY”DA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING “O‘ZBEKISTON VA KOREYA RESPUBLIKASI: O‘ZGARISHLAR DAVRIDA KELAJAK SARI INTILAYOTGAN HAMKORLIK” SARLAVHALI MAQOLASI E‘LON QILINDI



Maqolada O‘zbekiston va Koreya o‘rtasidagi tarixiy rishtalar, bugungi alohida strategik sheriklik, savdo-investisiya aloqalari hamda munosabatlarni yangi texnologik bosqichga olib chiqish istiqbollariga alohida e’tibor qaratilgan.

Maqolada qayd etilganidek –

-so‘nggi yillarda O‘zbekiston va Koreya o‘rtasidagi ikki tomonlama savdo hajmi 5 barobarga oshgan;

-Koreyaning O‘zbekiston iqtisodiyotiga kiritgan investitsiyalari hajmi 8 milliard dollardan oshgan;

-Ayni paytda mamlakatimizda Koreya kapitali ishtirokida 700 dan ziyod qo‘shma korxona va loyihalar amalga oshirilmoqda;

-KOICA, Koreya Eksimbanki va EDCF bilan hamkorlikdagi loyihalarning umumiy portfeli 3,5 milliard dollardan ortiq;

-2025-yilda Markaziy Osiyo davlatlarining umumiy yalpi ichki mahsuloti 500 milliard dollardan oshgan.

Prezident ikki mamlakat iqtisodiyotining o‘zaro to‘ldiruvchanligi yangi o‘sish drayverlarini yaratish uchun katta imkoniyat ekanini ta’kidlab, hamkorlikni umumiy ishlab chiqarish tizimlari, texnologik platformalar va yangi bozorlarni shakllantirish darajasiga olib chiqish muhimligini ta’kidladi.

“Ishonchim komilki, aynan shu asosda hamkorligimizning yangi sahifasini ochishimiz — alohida sohalardagi muvaffaqiyatli hamkorlikdan umumiy ishlab chiqarish tizimlari, texnologik platformalar va yangi bozorlarni shakllantirishga o‘tishimiz mumkin. Bu esa mamlakatlarimiz barqaror va uzoq muddatli farovonligining yanada mustahkam poydevorini barpo etadi”.

Maqolada sun’iy intellekt, yarim o‘tkazgichlar, robototexnika, elektr transport vositalari, biofarmasevtika, aqlli qishloq xo‘jaligi va “aqlli shaharlar” istiqbolli hamkorlik yo‘nalishlari sifatida belgilangan. Shuningdek, ta’lim va inson kapitaliga investisiya kiritish, akademik almashinuv va qo‘shma ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish muhimligi e’tirof etilgan.

Prezident, shuningdek, Markaziy Osiyo – Koreya Respublikasi sammiti O‘zbekiston va Koreya munosabatlari bilan bir qatorda, butun mintaqa bilan hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish uchun muhim maydon ekaniligiga alohida urg‘u berdi.

“...O‘zbekiston siyosiy muloqotni chuqurlashtirish, amaliy hamkorlikni kengaytirish va sheriklikning yangi, samarali mexanizmlarini shakllantirishga qaratilgan qator dolzarb tashabbuslarni ilgari surish niyatida. Bu tashabbuslar “Markaziy Osiyo — Koreya Respublikasi” formatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish, uni yanada tizimli, dinamik va uzoq muddatli mintaqaviy ustuvor vazifalarga yo‘naltirilgan mexanizmga aylantirishga qaratilgan”.

Prezident maqolasida qayd etilganidek, O‘zbekiston va Koreya Respublikasi o‘rtasidagi strategik sheriklik nafaqat ikki tomonlama munosabatlarni, balki Markaziy Osiyoda tinchlik, barqarorlik, innovatsiya va umumiy taraqqiyot uchun yangi imkoniyatlarni shakllantirishga xizmat qilmoqda.

“Markaziy Osiyo va Koreya Respublikasi tinchlik, innovatsiyalar, o‘zaro ishonch va umumiy farovonlikka asoslangan hamkorlikning yangi makonini shakllantira olishiga chin dildan ishonaman” – deydi Davlatimiz Rahbari maqolada.

@rasmiy_axborot

Zamon nafasi

QUYOSH TOMLARGA QO‘NGANDA...

Yil boshida biror hafta Toshkentda dam olishda bo‘lib uyga qaytgach, dastlab ko‘zim tushgan narsa yon qo‘shnimiz – amakimning o‘g‘li tomiga o‘rnatilgan quyosh panellari bo‘ldi. Oz emas, naqd yetmishta panel tunuka tomning qibla tarafini deyarli egallagan edi. Amakimning hali uylanmagan o‘g‘li bir yilcha xorijda ishlab, yaxshigina pul topibdi. Ishlab topgan puliga boshqa tengqurlari kabi yengil mashina xarid qilmabdi. Oldindan reja qilgani – quyosh panellari o‘rnatibdi. “Telefon orqali buyurtma berdim, o‘zlari keltirib, o‘rnatib ketishdi. Endi uyim hamisha charog‘on, qolaversa, ortiqcha energiyani elektr ta’minoti idorasiga sotaman. Bu borada shartnoma ham tuzdim. Qishning sovuq va bulutli kunlarida har kuni taxminan to‘qqiz ming so‘mlik elektr energiyasi sotyapman. Bahor-u yozda bu miqdor besh-o‘n barobarga osharkan. Har oyda bir yarim – ikki million beminnat pul hisobimga tushib tursa, yomonmi?” deydi u.

Ikki yil oldin qo‘shni qishloqlik tog‘amning nevarasi ham bog‘i to‘rida “kichik quyosh elektr stansiyasi” qurgan edi. Kichik stansiya deganimiz, bir sotixcha maydonga o‘rnatilgan quyosh panellari oyiga xonadon iste’molidan tashqari uch ming kilovattgacha elektr toki ishlab chiqarmoqda. Har kilovatt uchun elektr ta’minoti idorasi unga ming so‘mdan haq to‘layapti. Foyda uning besh kishilik oilasi uchun bir oylik oziq-ovqat va boshqa xarajatlarga yetib ortyapti.

“Quyosh panellarini o‘rnatish uchun ikki yuz million so‘m sarfladim. O‘sha pulni ortiqcha ishlab chiqarayotgan tokni sotish orqali olti-yetti yilda qoplar ekanman. Bu yoqda ro‘zg‘orim ishlatadigan tok tekin. Oldinlari qishda uyni isitish uchun oyiga elektr energiyasi iste’moliga ikki-ikki yarim million so‘m to‘lardim. Qisqasi, yiliga tok uchun o‘rtacha o‘n million so‘mcha pulim ketardi. Buniyam qo‘shsak, ikki yuz million so‘mga o‘rnatgan quyosh panellarim kamida yigirma besh yil xizmat qilishini aytsam, yigirma yil ro‘zg‘orimni boqarkan”. Bu so‘zlar oliy ma’lumotli iqtisodchiga emas, yigirma yetti yashar oddiy hunarmand yigitga tegishli.

Katta qizim maktabda direktor o‘rinbosari bo‘lib ishlaydi, kuyovim bank xizmatchisi. Ular birinchilardan bo‘lib tomiga quyosh panellari o‘rnatishgandi. Qizim quvonib e’tirof etishicha, oldinlari elektr iste’moli uchun qish oylarida maoshining yarmini sarflagan. Mana, uch yilki, bir tiyin ham to‘lashmayapti, aksincha, har oyda ortiqcha tokni sotib, ro‘zg‘origa ishlatishga o‘tishgan. *“Yozda oyiga bir million so‘m atrofida tok sotamiz. To‘g‘ri, bizlar o‘sha vaqtlari atigi besh kilovattlik quyosh panellari o‘rnatgandik. O‘n va undan ortiq kilovattli quyosh panellari o‘rnatganlar bundan ham ko‘proq topishyapti. Kuyovingiz bu yil yana qo‘shimcha quyosh panellari o‘rnatishni o‘ylayapti. Topgan pulimizni farzandlar o‘qishiga sarflasak yomonmi?”* deydi u.



Qishlog‘imizdagi o‘rtahol oila ham o‘tgan kuz adog‘ida tomiga quyosh panellari o‘rnattirdi. Endi davralarda, ba’zida elektr ta’minotida uzilishlar sodir bo‘lganidan norozilik bildiradigan qo‘shnilariga, shunday maslahat beradi: ***“Bir sigirimni sotdim, o‘zlari kelib bir zumda quyosh panellarini o‘rnatib berishdi. Chiroq qachon o‘chadi, degan tashvish yodimizdan chiqdi. Hisoblasam, har yili elektr uchun bundayroq bir buzoq pulini to‘lar ekanman. Bu yil shu buzoq yonimga qoldi – bir yilda rosmana ho‘kizga aylanadi. Shu quyosh panellarini o‘ylab topganlarga, uni o‘rnatayotganlarga rahmat!”***

Xorazm vohasida quyosh panellari o‘rnatila boshlaganiga hali bir muchal vaqt o‘tganicha yo‘q. Avvallari tomlarda yarqirab turadigan quyosh panellarini onda-sonda uchratardingiz. So‘nggi ikki yilda quyosh panellari o‘rnatish rusmga kirdi, hatto ayrimlar kimo‘zarga poyga boshlagandek. Qo‘shnisi o‘rnatganidan quvvati ikki hissa ko‘prog‘ini buyurtma qilayotganlar qancha.

Bozor iqtisodiyotining yozilmagan qonuni shuki, narx-navoni talab va ehtiyoj belgilaydi. Ya’ni, qaysi mahsulotga talab katta bo‘lsa, narxi ham oshadi. Bozor siyosatining ushbu o‘zgarmas qoidasi quyosh panellariga kelganida ojizlik qildi. Ikki yil oldin 10 kilovatt tok ishlab chiqaradigan quyosh panellarini oltmish million so‘mga o‘rnatib berishgan bo‘lsa, bugun bu narx 32 million so‘mga tushgan. Oldinlari quyosh panellari o‘rnatish uchun qay bir MCHJ shaklidagi tadbirkor eshigiga iltimos bilan borgan bo‘lsangiz, bugun tadbirkor o‘z xizmatini ijtimoiy tarmoqlar orqali taklif qilib, qo‘ng‘iroq qilgan zahotingiz eshigingizga kelyapti. Yana quyosh panellari o‘rnatadigan tadbirkorlar eng kamida bir yilgacha kafolat berib, tizimda biror nosozlik bo‘lsa, o‘z hisoblaridan tezkor ta’mirlash, nuqsonlarini tuzatishni zimmalariga olishgan.

Tarmoqda ishlaydigan tanishimning aytishicha, hozirda Xorazm viloyati quyosh panellari o‘rnatish ko‘rsatkichlari bo‘yicha respublikada eng ilg‘or ekan. O‘tgan yili barcha fermer xo‘jaliklari egalari elektr tokida ishlaydigan suv chiqarish nasoslari uchun quyosh panellari o‘rnatishdi va uning samarasini bir yildayoq sezishdi. Oldinlari sug‘orish mavsumida oyiga ishlatilgan tok uchun 30-40 million so‘m pul to‘laydigan fermerlar ortiqcha chiqimlardan xalos bo‘lishgan. Bugun qishloqlardagi umumiy ovqatlanish shoxobchalari ham deyarli to‘laligicha quyosh nuri hisobidan taomlar tayyorlashga o‘tgan. Tuproqqal’a tumani hududidagi bo‘sh yotgan qumliklarda yirik quyosh elektr stansiyasi barpo etishga o‘tgan yili kirishilgandi. Bu yangi quyosh elektr stansiyasi tufayli viloyatni elektr bilan ta’minlash ko‘rsatkichi deyarli 90 foizga yetadi. Bu – yil davomida, ayniqsa, qishning qorli-qirovli kunlarida ham elektr ta’minotida uzilishlar ro‘y berishi tarixga aylanadi, degani.

Prezidentimiz bir selektor yig‘ilishida “og‘ir” toifadagi 903 ta mahallada 300 kilovattli kichik quyosh stansiyalari qurilishini aytgandi. Garchi “kichik quyosh stansiyalari” deyilayotgan bo‘lsa-da, aslida, bu tipdagi har bir stansiyaning quvvati kamida yuz xonadonni uzluksiz tok bilan ta’minlashga yetadi.

Yana bir yangilik: endi “davlat toifasidagi oila” ro‘yxatiga kiritilgan oilalarga quyosh panellari o‘rnatishlari uchun BHMning 100 baravari, ya’ni 42,2 million so‘m miqdorida subsidiya beriladi. Demak, bugun “havodan pul ishlayotgan” o‘ziga to‘q va o‘rta qatlam vakillari qatoriga kambag‘al oilalar ham qo‘shiladi.

O‘tgan asrning 90-yillarida uylar tomida parabol antennalar uchrardi. Bu yangilikni hazillashib, “Yalla” ansamblining mashhur qo‘shig‘iga qiyoslab, “tom boshida tog‘ora” deyishardi. Endilikda tomlarni quyosh panellari “ishg‘ol qilish”ni boshlagan. Buning afzal tomoni, chiqimidan kirimi ko‘pligi, ya’ni, uyingizda o‘tirib, qo‘lingizni sovuq suvga urmasdan, havodan – quyosh nuridan pul ishlab topishingiz mumkinligidir.

Ro‘zimboy HASAN

Maqola “Jadid” gazetasining 2026-yil 4-sentyabrdagi 36-sonidan olindi.

Qadriyat

MEN SHU TILDA O‘YLAYMAN

Til millatning yuragi, uning tarixi, xotirasi va ma’naviy qiyofasini o‘zida mujassam etgan bebaho boylikdir. Inson dunyoni, avvalo, ona tili orqali anglaydi. Onasining allasi, otasining nasihati, ilk bor aytilgan so‘zlar, qalbga yaqin bo‘lgan duolar — bularning barchasi ona tilimiz bilan chambarchas bog‘liq. Men ham hayotni, atrofimdagi olamni, quvonch va kechinmalarimni o‘zbek tilida anglayman. Chunki men shu tilda o‘ylayman.

O‘zbek tili asrlar qa’ridan bizgacha yetib kelgan ulkan ma’naviy merosdir. Bu tilda buyuk allomalar ilm yaratgan, shoirlar betakror asarlar bitgan, ajdodlarimiz o‘z orzu-armonlarini ifoda etgan. Alisher Navoiy ona tilimizning imkoniyatlarini butun dunyoga namoyon etib, turkiy tilning naqadar boy va jozibador ekanini isbotlagan. Uning ijodi bizga tilni sevish, uni asrash va rivojlantirish naqadar muhim ekanini o‘rgatadi.

Tilga munosabat o‘zligimizga munosabatdir. O‘zbek tilida so‘zlashar ekanmiz, biz shunchaki muloqot vositasidan foydalanmaymiz. Biz xalqimizning tarixi, urf-odatlari, qadriyatlari va ruhiy olami bilan bog‘lanamiz. Birgina “ona”, “Vatan”, “mehr”, “sog‘inch”, “duo” kabi so‘zlarning o‘zida xalqimizning butun bir ma’naviy dunyosi mujassam.

Bugun o‘zbek tili davlat tili sifatida jamiyatimiz hayotining barcha sohalarida keng qo‘llanmoqda. Tilimizning nufuzi va imkoniyatlari tobora ortib bormoqda. Ammo tilni rivojlantirish faqat davlat yoki mutaxassislarning vazifasi emas. Har birimiz ona tilimizga qanday munosabatda bo‘lishimiz bilan uning kelajagiga o‘z hissamizni qo‘shamiz. So‘zlarni to‘g‘ri qo‘llash, savodli yozish, kitob o‘qish, milliy adabiyotimizni qadrlash tilga bo‘lgan hurmatning oddiy, ammo muhim ko‘rinishlaridir. Men boshqa tillarni ham o‘rganishni qadrlayman. Chunki har bir til inson uchun yangi dunyoga ochilgan eshikdir. Chet tillarini bilish dunyo bilan muloqot qilish, boshqa xalqlarning madaniyatini anglash imkonini beradi. Ammo qancha tilni bilmang, qancha mamlakatni kezmang, inson uchun eng yaqin va eng samimiy til baribir uning ona tilidir.

Men shu tilda quvonaman, shu tilda sog‘inaman, shu tilda orzu qilaman. Men shu tilda o‘zimni anglayman. O‘zbek tili — mening kecham, bugunim va ertam. Uni asrash — ajdodlar oldidagi burchimiz, uni rivojlantirish esa kelajak avlod oldidagi mas’uliyatimizdir. Zero, til yashasa — millat yashaydi. Til qadrlansa — milliy o‘zlik va ma’naviyat yanada yuksaladi. Yaqinlashib kelayotgan O‘zbek tili bayrami kuni bizga yana bir haqiqatni: ona tilini sevish — Vatanni sevishning eng go‘zal ko‘rinishlaridan biri ekanligini eslatadi. Shunday ekan, men faxr bilan ayta olaman: men o‘zbekman, men o‘zbek tilida so‘zlayman va eng muhimi men shu tilda o‘ylayman.

Saida SUVONOVA,
Bekobod tumani hokimining ma’naviyat va davlat tili masalalari bo‘yicha maslahatchisi

YANGI O‘ZBEKISTON MASSIVI — KELAJAK SHU YERDA QURILADI!

BUNYODKORLIK



Bekobod tumanida zamonaviy shaharsozlik va infratuzilmani rivojlantirish yo‘nalishida yirik loyihalardan biri amalga oshirilmoqda. 104 gektar maydonda barpo etilishi rejalashtirilgan “Yangi O‘zbekiston” massivi hududning kelajakdagi qiyofasini belgilovchi muhim bunyodkorlik tashabbusidir.

Bekobod tumani hokimi O‘zshaharsozlik LITI loyiha instituti mas’ullari hamda “Bekobod Investitsiya Boshqaruv Kompaniyasi” vakillari bilan birgalikda mazkur massivning qurilish loyihalari bilan tanishdi. Taqdimot davomida hududni kompleks rivojlantirish, zamonaviy uy-joylar barpo etish va aholi uchun qulay shahar muhitini shakllantirish masalalariga alohida e’tibor qaratildi.

Loyiha doirasida 104 gektar hududda 7 800 ta zamonaviy kvartira qurilishi ko‘zda tutilgan. Bu esa minglab oilalarning uy-joy sharoitlarini yaxshilash, aholining farovon hayot kechirishi uchun munosib muhit yaratish yo‘lidagi muhim qadamdir.

Massiv faqat turar joylardan iborat bo‘lib qolmaydi. Unda savdo va xizmat ko‘rsatish obyektlari, ta’lim muassasalari, sog‘liqni saqlash maskanlari, dam olish va ko‘ngilochar hududlar hamda zamonaviy shahar infratuzilmasi barpo etilishi rejalashtirilgan. Bunday yondashuv aholining kundalik ehtiyojlarini yashash joyiga yaqin hududning o‘zida ta’minlash, vaqt va masofani tejash, qulay hamda obod muhit yaratish imkonini beradi.

Bugungi kunda shaharsozlikda zamonaviy arxitektura, qulay transport va ijtimoiy obyektlarning uyg‘unligi, yashil hududlar hamda aholining ehtiyojlarini hisobga olgan rejalashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. “Yangi O‘zbekiston” massivi ham ana shu tamoyillar asosida rivojlantirilishi rejalashtirilgan yirik urbanistik loyiha sifatida e’tiborga loyiq.

Mazkur bunyodkorlik tashabbusi Bekobod tumanining ijtimoiy-iqtisodiy rivojiga, yangi ish o‘rinlari yaratilishiga, xizmat ko‘rsatish sohasi kengayishiga va aholi uchun qulay yashash sharoitlari ta’minlanishiga xizmat qiladi.

Eng muhimi, bugun loyihasi taqdim etilayotgan ushbu yangi massiv ertangi kunning zamonaviy va obod manziliga aylanishi ko‘zda tutilmoqda. Yangi uylar, rivojlangan infratuzilma va qulay shahar muhiti — bularning barchasi inson qadrini ulug‘lash, aholi farovonligini oshirish va hududning istiqboldagi taraqqiyotini ta’minlashga qaratilgan.

“Yangi O‘zbekiston” massivi — Bekobod tumanining kelajak sari tashlanayotgan dadil qadamlaridan biridir.

Akrom MAMADALIYEV

DEPUTAT MINBARI

MAHALLA TARAQQIYOTI YO‘LIDA OCHIQ MULOQOT

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputati Baxtiyor Artiqov Bekobod tumanidagi Yangibozor va Turon mahallalarida bo‘lib, mahalla yettiligi hamda faollar bilan uchrashuv o‘tkazdi.

Uchrashuv davomida mahallalarda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, aholi farovonligini oshirish, bandlikni ta’minlash, yoshlar va xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, tadbirkorlikni rivojlantirish hamda hudud infratuzilmasini yaxshilash masalalari muhokama qilindi.

Shuningdek, Xalq deputatlari Bekobod tumani Kengashi kotibiyatida tuman deputatlari, tuman hokimligi mas’ullari, iqtisodiyot va moliya bo‘limi xodimlari bilan suhbat o‘tkazildi.

Bundan tashqari, deputat hududlarda bo‘lib, aholi va mahalla faollari bilan muloqot qildi, ularning taklif va muammolarini o‘rgandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi “Byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori asosida mamlakatimizda aholining tashabbuslari bilan mahallalardagi muammolarni hal etish jarayonida fuqarolarning ishtiroki yo‘lga qo‘yildi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2024-yil 30-yanvardagi “Tashabbusli byudjet jarayonlarini o‘tkazish hamda moliyalashtirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori bilan “Tashabbusli byudjet” jarayonlarini o‘tkazish va moliyalashtirish tartibi belgilandi. Mazkur nizomga muvofiq, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlariga “Tashabbusli byudjet” jarayonlarida ishtirok etib, g‘olib bo‘lmagan loyihalar orasidan aholi muammolaridan kelib chiqqan holda bitta loyihani qo‘shimcha g‘olib deb e’lon qilish vakolati berildi. Bunda qo‘shimcha g‘olib bo‘lgan loyiha uchun mablag‘lar respublika byudjetidan ajratilishi ko‘zda tutilgan.

Tumanimizda “Tashabbusli byudjet” jamg‘armasidan 2026-yilning 1-mavsumi uchun 10 milliard 959 ming so‘m mablag‘ ajratilib, 6 ta loyihani moliyalashtirish imkoniyati yaratildi. Shuningdek, sheriklik loyihalari bo‘yicha 3 ta mahallaning takliflari g‘olib bo‘ldi. 2-mavsum uchun esa 118 ta taklif kiritilib, shundan 105 ta loyiha saralanib, ovoz berish jarayonlarida ishtirok etdi.

“Tashabbusli byudjet” tanlovining 2026-yildagi 2-mavsumida qatnashib, 50 tadan ko‘p ovoz to‘plagan, biroq g‘olib bo‘lmagan loyihalar tuman hokimligi mas’ullari va xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlari hamkorligida joylarga chiqib o‘rganildi.

Jumladan, Yangibozor mahallasidagi Alisher Navoiy va Sobir Rahimov, Turon mahallasidagi Mehnatobod-2, Yashnabod-1, Farovon, Mehnatobod hamda Eskikamar ko‘chalarida bo‘lib, ichki yo‘llar va piyodalar yo‘laklarining holati, elektr ta’minoti hamda tabiiy gaz tizimidagi muammolar tahlil qilindi.

Bekobod tumanida 51 ta mahalla mavjud bo‘lib, shundan 15 tasi qo‘shni Tojikiston Respublikasi bilan chegaradosh hududda joylashgan. Chegara hududining umumiy uzunligi 86 kilometrni tashkil etadi. Turon mahallasi ham ana shunday chegara hududidagi mahallalardan biridir. Mahalla “Og‘ir” toifa sifatida belgilangan bo‘lib, aholiga qulayliklar yaratish borasida ishlar boshlangan. Shunga qaramay, mahalla infratuzilmasini yanada yaxshilash, aholining turmush sharoitini yuksaltirish borasida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan vazifalar talaygina. Deputat mahalla aholisi va “mahalla yettiligi” a’zolari bilan suhbatlashib, ko‘chama-ko‘cha yurish orqali hal etilishi lozim bo‘lgan masalalarni belgilab oldi.

Bunday ochiq muloqotlar aholi muammolarini joyida o‘rganish, mavjud kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo‘yicha vazifalarni belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Abdujabbor RASULOV,
O‘zLiDeP Bekobod tuman Kengashi raisining birinchi o‘rinbosari – apparat rahbari

XAVFSIZLIK

Yurtimizda fuqarolarning hayoti va sog‘lig‘ini asrash, mol-mulkini turli favqulodda vaziyatlardan himoya qilish, xususan, yong‘inlarning oldini olish borasida muntazam profilaktik tadbirlar o‘tkazilmoqda. Ana shunday tadbirlardan biri 1-sentyabrdan 30-sentyabrgacha o‘tkazilayotgan “Yong‘indan ogohlik — umummilliy kompaniyasi oyligi”dir.

OGOHLIK — YONG‘INDAN HIMOYANING MUHIM CHORASI

Mazkur oylikning asosiy maqsadi aholi, korxona va tashkilotlar, ta’lim muassasalarida yong‘in xavfsizligi qoidalariga rioya etish madaniyatini oshirish, fuqarolarni yong‘inlarning kelib chiqish sabablari va ularning oldini olish choralari haqida keng xabardor qilishdan iborat.

Yong‘in qisqa vaqt ichida inson hayoti va sog‘lig‘iga, uy-joylar hamda boshqa mol-mulkka katta zarar yetkazishi mumkin. Aksariyat hollarda bunday hodisalar oddiy ehtiyotsizlik, xavfsizlik qoidalariga beparvolik, elektr va gaz jihozlaridan noto‘g‘ri foydalanish oqibatida yuzaga keladi. Shu bois yong‘in xavfsizligini ta’minlash faqat tegishli xizmatlarning emas, balki har bir fuqaroning kundalik vazifasi bo‘lishi lozim.

Xonadonlarda elektr jihozlarining texnik holatiga e’tibor qaratish, nosoz sim va rozetkalardan foydalanmaslik, elektr tarmoqlariga ortiqcha yuklama bermaslik zarur. Elektr isitish moslamalari, gaz plitalari va isitish pechlarini nazoratsiz qoldirmaslik, yosh bolalarni gugurt, zajigalka va boshqa olov manbalaridan uzoq tutish kerak. Ota-onalar farzandlariga yoshligidan yong‘in xavfsizligi qoidalarini o‘rgatishi muhim.

Kuz-qish mavsumi boshlanishi bilan isitish moslamalaridan foydalanish ko‘payadi. Shu sababli isitish pechlari va dudburonlarning texnik holatini oldindan tekshirish, ularni muntazam tozalash, qo‘lbola va nostandart isitish moslamalaridan foydalanmaslik lozim. Gaz plitasidan xonani isitish maqsadida foydalanish esa hayot uchun xavflidir.

Is gazi rangsiz va hidsiz bo‘lgani sababli inson uchun, ayniqsa, xavflidir. Uning oldini olish uchun xonalarni muntazam shamollatish, isitish tizimlarining sozligini nazorat qilish va zarur hollarda is gazini aniqlovchi maxsus signalizatorlardan foydalanish tavsiya etiladi.

Yong‘in sodir bo‘lganda sarosimaga tushmasdan, avvalo, odamlarni xavfsiz joyga olib chiqish, atrofdagilarni ogohlantirish va tezkor xizmatlarga xabar berish zarur. Xavfsizlikni ta’minlamasdan yong‘inni mustaqil ravishda o‘chirishga urinmaslik kerak. Yong‘in yoki boshqa favqulodda vaziyat yuzaga kelganda 112 yagona tezkor raqamiga murojaat qilish mumkin.

“Yong‘indan ogohlik — umummilliy kompaniyasi oyligi” doirasida mahallalar, ta’lim muassasalari, korxona va tashkilotlarda tushuntirish ishlari, uchrashuvlar va amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazilmoqda. Bunday tadbirlar aholining yong‘in xavfsizligi bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Yong‘in xavfsizligiga beparvo munosabat katta talafotlarga sabab bo‘lishi mumkin. Oddiy ehtiyotkorlik esa inson hayoti va mol-mulkini asrashga xizmat qiladi. Shuning uchun har bir xonadon, korxona va tashkilotda yong‘in xavfsizligi qoidalariga qat’iy rioya qilish, aniqlangan kamchiliklarni o‘z vaqtida bartaraf etish lozim.

Yong‘in xavfsizligi — inson hayoti, oila tinchligi va jamiyat osoyishtaligini asrashga qaratilgan umumiy mas’uliyatdir. Barchamiz hushyor va ogoh bo‘lsak, ko‘plab ko‘ngilsiz hodisalarning oldini olishimiz mumkin.

Abdulaziz ABDUGAPPAROV,
Bekobod tumani Favqulodda vaziyatlar bo‘limi kichik inspektori, kichik serjant

AXBOROT XAVFSIZLIGI

KIBERXAVFSIZLIKNI TA’MINLASHDA ISHONCHLI HIMOYA

Bugungi kunda smartfon har birimizning cho‘ntagimizdagi bank bo‘limi, hujjatxona va shaxsiy arxivga aylandi. Unda bank ilovalari, shaxsiy suratlar, hujjatlar, yozishmalar va boshqa muhim ma’lumotlar saqlanadi. Ayni shu sababli jinoyatchilarning e’tibori ham ko‘chadan raqamli makonga ko‘chmoqda.

Kiberjinoyatlarning katta qismi murakkab texnologiyalarga emas, balki insonning ishonuvchanligi va ehtiyotsizligiga asoslanadi. Firibgarlar bank yoki davlat xizmatlari saytlariga o‘xshatib yaratilgan soxta sahifalar orqali login, parol va karta ma’lumotlarini qo‘lga kiritishga urinadi. Bu usul fishing deb ataladi. Shuningdek, “bank xodimi”, “tergovchi” yoki “operator” sifatida qo‘ng‘iroq qilib, SMS-kod va boshqa maxfiy ma’lumotlarni so‘rash, soxta savdo e’lonlari hamda “yutuq” haqidagi xabarlar yuborish, Telegram va ijtimoiy tarmoq akkauntlarini egallab olish kabi usullar ham keng tarqalgan.

So‘nggi paytlarda zararli APK fayllardan foydalanish bilan bog‘liq tahdidlar ham kuchaymoqda. Firibgarlar Telegram orqali “to‘y taklifnomasi”, “bayram tabrigi”, “sizning suratingiz tarqalib ketibdi” yoki “sovrin yutdingiz” kabi bahonalar bilan turli fayllarni yuboradi. Bunda insonning qiziqishi, qo‘rquvi yoki moddiy manfaatdorligidan foydalaniladi.

Bunday fayl o‘rnatilgach, zararli dastur qurilmadagi ma’lumotlarga ruxsatsiz kirishga urinishi mumkin. Jumladan, SMS-xabarlar va tasdiqlash kodlarini o‘qish, bank ilovalaridagi ma’lumotlarni qo‘lga kiritish, shaxsiy suratlar hamda hujjatlardan foydalanish, zararli faylni kontaktlar ro‘yxatidagi boshqa shaxslarga yuborish kabi xavflar yuzaga keladi. Shu bois noma’lum manbadan kelgan APK fayllarni o‘rnatmaslik har bir foydalanuvchining muhim vazifasidir.

Fuqarolarning mobil qurilmalarini zararli va shubhali APK fayllardan himoya qilish maqsadida “APK



QO‘RIQCHI” ilovasidan foydalanish tavsiya etiladi. Google Play platformasidan bepul yuklab olinadigan ushbu ilova qurilmaga o‘rnatilgan dasturlar va yuklab olingan fayllarni tahlil qilish, ularning manbasini ko‘rsatish hamda xavfli ruxsatlarni aniqlashga yordam beradi. Shubhali fayl o‘rnatilishiga urinish aniqlanganda foydalanuvchini ogohlantirishi va jarayonni to‘xtatishi mumkin.

Ilovaning muhim jihatlaridan biri — tahlil qurilmaning o‘zida amalga oshirilishi, ya’ni shaxsiy ma’lumotlarning tashqariga uzatilmasligidir. Biroq har qanday himoya vositasi mutlaq xavfsizlikni kafolatlamaydi. Shu sababli ilovani faqat rasmiy Google Play do‘konidan yuklab olish, uni noma’lum havola orqali kelgan fayl ko‘rinishida o‘rnatmaslik zarur.

Kiberxavfsizlikni ta’minlashda quyidagi qoidalarga amal qilish muhim:

– Noma’lum manbadan kelgan .apk fayllarni hech qachon o‘rnatmang. Hatto faylni tanishingiz yuborgan bo‘lsa ham, avval u bilan bog‘lanib, xabarni aniqlashtiring.

– SMS-kod, parol va bank karta ma’lumotlarini hech kimga aytmang. O‘zini bank xodimi deb tanishtirgan shaxsga ham ishonib, maxfiy ma’lumotlarni bermang.

– Ilovalarni faqat Google Play yoki App Store kabi rasmiy do‘konlardan yuklab oling. Qurilmada “noma’lum manbalardan o‘rnatish” ruxsatini o‘chirib qo‘ying.

– Muhim xizmatlarda ikki bosqichli tasdiqlashni yoqing va turli akkauntlarda bir xil paroldan foydalanmang.

– Operatsion tizim va ilovalarni muntazam yangilab boring. Yangilanishlar ko‘pincha xavfsizlikdagi zaifliklarni bartaraf etishga xizmat qiladi.

– Ijtimoiy tarmoqlarda shaxsiy ma’lumotlar, hujjat nusxalari va joylashuvingizni ommaga oshkor qilmang.

– Firibgarlikdan zarar ko‘rgan taqdiringizda vaqtni boy bermang: darhol bank kartangizni bloklang, bankingizga murojaat qiling va 102 raqami orqali yoki eng yaqin ichki ishlar bo‘limiga xabar bering.

Kiberxavfsizlik — faqat mutaxassislar zimmasidagi texnik masala emas, balki har bir fuqaroning kundalik ogohligidan boshlanadigan umumiy madaniyatdir. Bir-gina o‘ylanmay bosilgan havola yoki o‘rnatilgan zararli fayl shaxsiy ma’lumotlar, bank mablag‘lari va yaqinlarimiz xavfsizligiga tahdid solishi mumkin.

Shunday ekan, raqamli makonda hushyor bo‘laylik. O‘zimiz zarur bilimlarni egallash bilan birga, ota-onamiz, farzandlarimiz va qo‘ni-qo‘shnilarimizni ham kiberxavflardan ogoh etaylik. Zero, ogohlik — eng ishonchli himoyadir!

Diyorbek ABDURASHIDOV,
Toshkent viloyati Kiberjinoyatlarga qarshi kurashish boshqarmasi
Uchinchi tumanlararo bo‘linmasi
Kiberprofilaktika guruhi inspektori, leytenant

HUQUQIY BILIM



DAVLAT XIZMATLARIDA YANGI QULAYLIKLAR

O‘zbekistonda davlat xizmatlarini raqamlashtirish va aholiga yanada qulay sharoit yaratish borasidagi islohotlar izchil davom etmoqda. 2026-yil 15-iyulda qabul qilingan Prezident qaroriga muvofiq, Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali — my.gov.uz orqali ko‘rsatiladigan elektron xizmatlar soni yanada kengaytiriladi.

Qarorga ko‘ra, 2026-yil 1-oktyabrdan boshlab fuqarolar va tadbirkorlar uchun yangi elektron xizmatlar joriy etiladi. Xususan, portal orqali ko‘chmas mulk va avtotransport vositalarini garovga yoki ipotekaga qo‘yish, ularni begonalashtirishga taqiq qo‘yish yoki ushbu taqiqni bekor qilish bilan bog‘liq xizmatlardan foydalanish imkoniyati yaratiladi.

Mazkur yangilik fuqarolarning davlat idoralariga murojaat qilish zaruratini kamaytirib, hujjatlarni rasmiylashtirish jarayonini soddalashtirishga xizmat qiladi. Elektron xizmatlardan foydalanish ortiqcha vaqt va xarajatlarni tejash, murojaatlarni ko‘rib chiqish jarayonining shaffofligini oshirish imkonini ham beradi.

Yangi xizmatlarning joriy etilishi raqamli hukumat tizimini yanada rivojlantirish, davlat xizmatlari sifati va qulayligini oshirish hamda aholining elektron xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Davlat xizmatlarini raqamlashtirish — zamonaviy boshqaruvning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Elektron xizmatlarning kengayishi aholining vaqtini tejash, davlat idoralari bilan munosabatlarni soddalashtirish va xizmatlardan foydalanish qulayligini oshirishga xizmat qiladi. Bu esa mamlakatimizda raqamli hukumatni rivojlantirish yo‘lidagi muhim qadamdir.

Mirzohid XUDAYNAZAROV,
Bekobod tumani Adliya bo‘limi DXM sho‘ba boshlig‘i 2-darajali yurist

SIFATLI MAHSULOT — ISTE’MOLCHI XAVFSIZLIGINING MUHIM OMILI



Bugungi kunda iste’molchilarni sifatli va xavfsiz tovarlar bilan ta’minlash, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish muhim vazifalardan biridir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 4-apreldagi PQ-110-son qarori bilan sertifikatlanmagan, yaroqlilik muddati o‘tgan, kontrafakt hamda iste’molga yaroqsiz mahsulotlarning ishlab chiqarilishi va muomalaga chiqarilishining oldini olish bo‘yicha qo‘shimcha choralar belgilangan.

Mazkur vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida Toshkent viloyati Iste’molchilar huquqlarini himoya qilish jamiyatlari hududiy birlashmasi hamda tuman va shahar jamiyatlari tomonidan hududlarda jamoatchilik monitoringlari olib borilmoqda. Monitoringlar davomida savdo va xizmat ko‘rsatish obyektlarida sotilayotgan mahsulotlarning yaroqlilik muddati, qadoqlanishi, markirovkasi, saqlash sharoitlari, narxlarning ko‘rsatilishi hamda iste’molchilarga zarur ma’lumotlarning taqdim etilishi o‘rganilmoqda.

Aniqlangan kamchiliklar yuzasidan tadbirkorlik subyektlariga tegishli tushuntirishlar berilib, qonunchilik talablariga rioya etish, iste’molchilar huquqlarini ta’minlash va kelgusida bunday holatlarning oldini olish bo‘yicha tavsiyalar berilmoqda.

Qarorda oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish, tayyorlash, saqlash va realizatsiya qilish, sifati buzilgan hamda yaroqlilik muddati o‘tgan mahsulotlarni sotishga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha tegishli nazorat yo‘nalishlari ham belgilangan.

Shu bilan birga, tuman va shahar jamiyatlari tomonidan aholining huquqiy savodxonligini oshirish, iste’molchilarga o‘z huquqlarini tushuntirish hamda tadbirkorlik subyektlari o‘rtasida targ‘ibot-tashviqot ishlarini kuchaytirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Har bir monitoringning asosiy maqsadi tadbirkorni jazolash emas, avvalo, iste’molchi manfaatlarini himoya qilish, xavfsiz va sifatli mahsulotlar savdosini ta’minlash hamda qonunbuzilishlarning oldini olishdan iborat.

Iste’molchilar esa xarid vaqtida mahsulotning yaroqlilik muddati, qadoqlanishi, markirovkasi va boshqa zarur ma’lumotlariga e’tibor qaratishlari lozim. Huquqlari buzilgan taqdirda esa belgilangan tartibda tegishli tashkilotlarga murojaat qilishlari mumkin.

Hududlarda iste’molchilar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan monitoring, murojaatlar bilan ishlash va targ‘ibot-tashviqot tadbirlari izchil davom ettiriladi.

Maftuna IBROHIMOVA,
Bekobod tumani Iste’molchilar huquqlarini himoya qilish jamiyati raisi

DOLZARB MAVZU



SADO BERMAS QIRG‘OQLAR YOXUD TO‘LQININI YO‘QOTGAN SOHIL

Bir vaqtlar bag‘rida ulkan kemalar qo‘nim topgan, to‘lqinlari qirg‘oqlariga urilib turgan Orol dengizi bugun qum va tuzdan iborat fayzsiz sahroga aylangan. Dunyodagi yirik ichki suv havzalaridan biri bo‘lgan bu dengizning qurishi nafaqat xaritani, balki minglab insonlarning taqdirini ham o‘zgartirib yubordi. O‘tgan asrning 60-yillarigacha u 68 ming kvadrat kilometr maydonni egallagan, 34 turdagi baliq yashagan hamda sohilida joylashgan Aralsk va Mo‘ynoq kabi shaharlarda minglab aholini ish bilan ta’minlagan iqtisodiy va ekologik tayanch edi. Insoniyatning tabiat qonunlariga o‘zboshimchalik bilan aralashuvi, yillar davomida shakllangan tabiiy muvozanatning izdan chiqishi oxir-oqibat butun boshli dengizning qum va tuzdan iborat sahroga aylanishiga olib keldi.

Agrar sohadagi noto‘g‘ri yondashuv, nosoz irrigatsiya tizimlari hamda suv resurslaridan beparvolik bilan foydalanish oqibatida daryolardan keladigan suv hajmi keskin kamayib ketdi. Sug‘orish tizimlarining ekologik jihatdan takomillashtirilmagani fojianing yanada tezlashishiga sabab bo‘ldi. Suv daryolardan dalalarga yetib borguncha quvurlar, ariqlar va nosoz kanallardan sizib chiqishi oqibatida katta qismi yo‘lda yo‘qolardi. Natijada dengiz sathi tez pasayib, suv tarkibidagi tuz miqdori keskin oshdi. Suv havzasi asta-sekin tirik mavjudotlar yashashi uchun yaroqsiz holatga kelib qoldi.

Dengiz biologik resurslarining 90 foizdan ortig‘i yo‘qolib ketdi. 1980-yillar oxiriga kelib, baliqchilik sanoati va kemalar qatnovi deyarli butunlay to‘xtadi. Dengiz chekingan hududda yangi cho‘l — Orolqum paydo bo‘ldi. Qurigan dengiz tubidan ko‘tarilayotgan tuz va zaharli moddalar bilan ifloslangan chang zarrachalari shamol orqali uzoq masofalarga tarqalmoqda. Bu holat nafaqat qishloq xo‘jaligi ekinlari va tuproq unumdorligiga zarar yetkazmoqda, balki Orolbo‘yi hududida aholi salomatligi uchun ham jiddiy xavf tug‘dirmoqda. Iqlim o‘zgarishi natijasida yoz issiq va quruq, qish esa nisbatan sovuqroq kechib, hududning tabiiy muvozanati buzildi.

Mutaxassislarning ta’kidlashicha, Orol dengizini avvalgi holatiga to‘liq qaytarish endi imkonsiz. Biroq fojia oqibatlarini yumshatish va kelajak avlod uchun xavfsiz muhit yaratish o‘z qo‘limizda. Bugungi kunda qurigan dengiz tubiga millionlab daraxt, buta, saksovul va boshqa cho‘l o‘simliklari ekilmoqda. Shu tariqa hududda tabiiy to‘siqlar barpo etilib, qum va tuzning shamol orqali tarqalishini kamaytirishga erishilmoqda.

Orol fojiasi — inson va tabiat o‘rtasidagi muvozanat buzilishi qanday og‘ir oqibatlarga olib kelishini ko‘rsatuvchi eng achchiq saboqlardan biridir. Bugun ushbu saboqdan to‘g‘ri xulosa chiqarish, tomchilatib sug‘orish kabi suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish, suv resurslarini asrash va ekologik madaniyatni yuksaltirish kelajak avlodlar oldidagi eng yuksak mas’uliyatimizdir.

Jasmina NE’MATJONOVA,
Toshkent davlat tibbiyot universiteti Tibbiy profilaktika va jamoat salomatligini saqlash fakulteti 1-bosqich talabasi

DALADA NAZORAT

EKINLAR SALOMATLIGI — E’TIBORDA



Qishloq xo‘jaligi ekinlarini zararli organizmlardan himoya qilish, hosildorlikni saqlash va vegetatsiya davrida xavfli zararkunandalar tarqalishining oldini olish o‘simliklar karantini va himoyasi sohasining muhim vazifalaridan biridir. Shu munosabat bilan O‘simliklar karantini va himoyasi agentligining Bekobod tumani bo‘limi fitosanitar nazorat davlat inspektorlari tomonidan tumandagi fermer xo‘jaliklari va dala maydonlarida tamaki oqqanoti (Bemisia tabaci) zararkunandasiga qarshi doimiy monitoring hamda profilaktik tadbirlar olib borilmoqda.

Tamaki oqqanoti — qishloq xo‘jaligi ekinlariga, xususan, g‘o‘za, sabzavot va poliz ekinlariga jiddiy zarar yetkazuvchi xavfli zararkunanda. U o‘simlik shirasini so‘rib, uning rivojlanishini sekinlashtiradi. Shuningdek, ayrim virusli kasalliklarni tarqatishi mumkin.

Tuman inspektorlari tomonidan olib borilayotgan amaliy chora-tadbirlar doirasida paxta va sabzavot ekiladigan maydonlarda fitomonitoring va nazorat ishlari kuchaytirilgan. Xavf ostidagi ekin maydonlari muntazam ko‘zdan kechirilib, sariq yopishqoq tuzoqlar va vizual kuzatuvlar orqali zararkunandaning paydo bo‘lish o‘choqlari aniqlanmoqda.

Zararkunanda zichligi yuqori bo‘lgan maydonlarda uyg‘unlashgan kurash usullaridan foydalanishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, biologik kurashda oltinko‘z, xonqizi kabi foydali entomofaglardan foydalanish, zarur hollarda esa tavsiya etilgan va ruxsat etilgan kimyoviy preparatlarni belgilangan me’yorlar asosida qo‘llash masalalari nazoratga olingan.

Shuningdek, inspektorlar tomonidan fermer xo‘jaliklari rahbarlari va agronomlariga tamaki oqqanotining rivojlanish bosqichlari, unga qarshi kurashishning maqbul muddatlari, ishlov berish tartibi hamda xavfsizlik qoidalariga rioya qilish bo‘yicha amaliy va uslubiy tavsiyalar berilmoqda.

O‘simliklar karantini va himoyasi agentligi Bekobod tumani bo‘limi fitosanitar nazorat davlat inspektorlari tomonidan amalga oshirilayotgan bunday monitoring va profilaktik tadbirlar ekinlarni zararli organizmlardan himoya qilish, sifatli va mo‘l hosil yetishtirish hamda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari xavfsizligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Hasan DAVLATOV,
Sadir MAHKAMOV,
Murod AMANOV,
Sardor BEGIMQULOV,
O‘simliklar karantini va himoyasi agentligi Toshkent viloyati Bekobod tumani bo‘limi Fitosanitar nazorati davlat inspektorlari

TADQIQOT VA TAJRIBA

BEDA — YERGA HAYOT, CHORVAGA OZUQA

Bugungi kunda qishloq xo‘jaligida suv resurslaridan oqilona foydalanish, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va chorvachilik uchun mustahkam ozuqa bazasini yaratish dolzarb masalalardan biridir. Ayniqsa, suv taqchilligi kuchayib borayotgan sharoitda kam suv talab qiladigan, tuproq unumdorligini oshirishga xizmat qiladigan hamda chorva uchun to‘yimli ozuqa beradigan ekinlarni keng joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, beda nafaqat chorvachilik uchun qimmatli yem-xashak ekini, balki tuproq unumdorligini yaxshilash va yerlarning meliorativ holatini tiklashda foydalanish mumkin bo‘lgan muhim ekinlardan biridir. Olib borayotgan ilmiy izlanishlarimning bir qismi ham aynan bedadan shu maqsadlarda foydalanish imkoniyatlarini o‘rganishga qaratilgan.

Taklif etilayotgan usulda beda dastlab amaldagi agrotexnik talablar asosida ekiladi. Birinchi yili ekinni parvarishlash, sug‘orish va yig‘im-terim ishlari mavjud tartibda olib boriladi. Keyingi yillardan boshlab esa bedaning suv tanqisligiga chidamliligini oshirish maqsadida sug‘orish muddatlarini bosqichma-bosqich kechiktirib borish taklif etiladi.

Jumladan, ikkinchi yildan boshlab bahorgi birinchi sug‘orishni odatdagi muddatdan 10–15 kun kechiktirish, keyingi sug‘orishni ham shunga yaqin muddatga surish mumkin. Uchinchi yilda esa birinchi sug‘orish muddatini yanada kechiktirib, ob-havo va tuproq namligidan kelib chiqib, yengil sug‘orish bilan cheklanish taklif etiladi. Agar bahorgi yog‘ingarchilik yetarli bo‘lsa, qo‘shimcha sug‘orishga ehtiyoj kamayadi.

Bunday yondashuvning asosiy g‘oyasi shundaki, o‘simlik suvni chuqurroq qatlamlardan olishga moslashadi. Beda kuchli va rivojlangan ildiz tizimiga ega ekin sifatida tuproqning chuqur qatlamlaridan namlik olish imkoniyatiga ega. Xalqimizda “Tuya yantoqni istasa, bo‘yinini cho‘zadi”, degan ibora bor. Mazkur hikmatni o‘simlik hayotiga qiyoslasak, suvga ehtiyoj sezgan beda ildizlari ham namlik izlab tuproqning chuqurroq qatlamlariga kirib borishini kuzatish mumkin.

Shundan kelib chiqib, bedazorlarni bir necha yil davomida kamroq sug‘orish, keyingi bosqichda esa tabiiy namlik va mavjud sizot suvlaridan foydalanish imkoniyatlarini o‘rganish taklif etilmoqda. Bunda, albatta, har bir hududning tuproq-iqlim sharoiti, sizot suvlarining chuqurligi va minerallashuv darajasi hisobga olinishi lozim.

Bedaning yana bir muhim jihati — uning chorvachilik uchun to‘yimli yem-xashak manbai ekanidir. Qurg‘oqchilik yillarida tabiiy yaylovlarda ozuqa yetishmovchiligi yuzaga kelishi chorvachilikni qiyin ahvolga solib qo‘yadi. Bunday sharoitda bedazorlarni tashkil etish chorva uchun qo‘shimcha ozuqa bazasini yaratishga xizmat qilishi mumkin. Bedadan pichan, senaj va boshqa yem-xashak turlarini tayyorlash orqali chorvachilik uchun zaxira yaratish imkoniyati mavjud.

Beda tuproq unumdorligini oshirishda ham alohida ahamiyatga ega. Dukkakli ekin sifatida u ildizidagi tuganak bakteriyalari yordamida atmosfera azotini biologik o‘zlashtirish jarayonida ishtirok etadi. Shu sababli beda yetishtirilgan maydonlarda tuproqning biologik faolligi va unumdorligini yaxshilash imkoniyati ortadi. Bir necha yil davomida bedazor sifatida foydalanilgan maydon keyinchalik boshqa ekinlarni yetishtirish uchun ham yaxshi sharoit yaratishi mumkin.

Bugungi kunda meliorativ holati talab darajasida bo‘lmagan, ayrim joylarda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishidan chetda qolayotgan yerlar mavjud. Ana shunday maydonlarda bedachilikni rivojlantirish imkoniyatlarini ilmiy asosda o‘rganish maqsadga muvofiq. Ayniqsa, chorvachilik rivojlangan hududlarda bunday yerlardan yem-xashak bazasini yaratishda foydalanish mumkin.

Taklif etilayotgan yondashuvning yana bir muhim tomoni — suvni tejash imkoniyatidir. Sug‘orish miqdorini kamaytirish hisobiga suv resurslaridan samaraliroq foydalanish, shu bilan birga chorvachilik uchun ozuqa yetishtirish mumkin. Bu esa bir vaqtning o‘zida ikki muhim vazifani — suv resurslarini asrash va yem-xashak bazasini mustahkamlashni hal etishga yordam beradi.

Bundan tashqari, keng maydonlarda o‘simlik qoplamining mavjudligi shamol eroziyasi va chang ko‘tarilishining oldini olishga ko‘maklashadi. Qurg‘oqchil hududlarda yashil maydonlarni ko‘paytirish mikroiqlimga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu bois cho‘l hududlariga yaqin joylashgan qishloq va shaharchalar atrofida yem-xashak ekinlari, jumladan, beda maydonlarini tashkil etish imkoniyatlarini ham o‘rganish foydadan xoli emas.

Albatta, bu takliflarni amaliyotga joriy etishdan oldin keng ko‘lamli ilmiy tajribalar o‘tkazish zarur. Turli tuproq va iqlim sharoitlarida bedaning suvga bo‘lgan ehtiyoji, ildiz tizimining rivojlanishi, sizot suvlariga ta’siri, tuproq unumdorligidagi o‘zgarishlar, hosildorlik va chorva uchun ozuqaviy qiymati alohida o‘rganilishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda suv tanqisligi, yerlarning meliorativ holati va chorvachilik uchun ozuqa yetishtirish masalalari bir-biri bilan chambarchas bog‘liq. Shunday ekan, oddiygina yem-xashak ekini sifatida qaraladigan bedaning imkoniyatlarini yanada chuqurroq o‘rganish, undan tuproq unumdorligini oshirish, suvni tejash va chorvachilik uchun mustahkam ozuqa bazasini yaratishda kompleks foydalanish istiqbolli yo‘nalishlardan biri bo‘lishi mumkin.

Abdurashid XOLIQULOV,
O‘zXDP Bekobod tumani kengashi a’zosi

E’TIROF

USTOZ VA SHOGIRD

Shogird — ustoz mehnatining eng munosib samarasi.

Hayotda o‘zingga munosib shogird tanlash, uni topish ham oson ish emas. Bir vaqtlar “Do‘stlik” mahallasining bo‘sh turgan kotiblik lavozimi uchun uzoq vaqt munosib kadr izladik. Nomzodlarning biri ma’lumoti bilan to‘g‘ri kelsa, ish qobiliyati bilan talabga javob bermasdi. Yana birining salohiyati bor, ammo mas’uliyati yetarli emas edi.

Shunda Mirzabek Sherbekov nomzodini hech ikkilanmasdan tanladim. U bilan suhbatlashish, roziligini olish uchun uyiga bordim. Maqsadimni onasiga aytganimda, u kishi:

— Yolg‘iz o‘g‘lim. Ko‘pchilik bilan ishlay olarmikin? Javobgarligi katta, qanday bo‘larkin? — deya ikkilanib, xavotir bildirdi.

Men esa:

— O‘zim ish o‘rgataman. O‘g‘lingiz eplaydi, — dedim.

Shu tariqa Mirzabekni mahallaga ishga taklif qilganim xuddi kechagidek esimda.

Gap shundaki, ish faoliyati davomida Mirzabek o‘zining harakatchanligi, kamtarligi, izlanuvchanligi bilan unga bildirilgan ishonchni to‘la oqladi. Dastlab “Do‘stlik” mahallasi mas’ul kotibi, keyinchalik tuman hokimi yordamchisi lavozimlarida samarali mehnat qildi. Ayni kunda esa Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi Bekobod tuman bo‘limi bosh mutaxassisi sifatida faoliyat yuritmoqda.

Men uni ishga taklif qilganimda uning yana bir noyob qobiliyati — shoirlik iste’dodini ham hisobga olgan edim. Boisi ijodkor odamdan yomonlik chiqmaydi. Bu borada ham adashmagan ekanman.

Oradan ancha-muncha yillar o‘tdi.

Bugun-chi?

Mirzabek ishlash bilan birga ijod qildi. “Palaxmon toshi”, ”Mehringizni qo‘msayman”, “O‘g‘lingman, Vatan!” kabi she’riy kitoblarini yozib, nashr ettirdi. Respublika va viloyat matbuotida o‘nlab she’r va maqolalari e’lon qilindi. Qolaversa, tumanimiz tashkil topganining (1926) 100 yilligiga bag‘ishlab, tuman tarixiga oid 100 ta audio eshittirish tayyorlab efirga uzatdi.

Kuni kecha esa Mirzabek hayotidagi unutilmas, quvonchli kunlardan biri bo‘ldi. Mustaqillik bayrami arafasida O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi, xalq shoiri, senator Sirojiddin Sayyid tumanimizga tashrif buyurib, Mirzabekka O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zoligiga qabul qilinganini tasdiqlovchi guvohnomani tantanali ravishda topshirdi.

Aslida, Yozuvchilar uyushmasidek ulug‘ dargohga hammani ham a’zo qilishavermaydi. Tarixga nazar tashlasak, ne-ne buyuk ijodkorlar — G‘afur G‘ulomdan tortib Muhammad Yusufgacha — shu ulug‘ dargoh a’zosi bo‘lganini ko‘ramiz.

Bundan tashqari, Yurtboshimiz Farmoni bilan Mirzabek Sherbekov “O‘zbekiston Respublikasi Mustaqilligiga 35 yil” esdalik nishoni bilan taqdirlandi. Ustoz sifatida shogirdimning bu yutug‘idan g‘oyat xursandman. Mirzabekni chin dildan tabriklayman!

Uning qisqa muddatda erishgan yutuqlari o‘z-o‘zidan bo‘layotgani yo‘q. Mashhur hofizimiz Sherali Jo‘rayev nola qilganday: Do‘st bo‘lsang yonimda tur. Uning faoliyatini kuzatib, har kuni yonma-yon bo‘lib kelyapman. Unga ma’naviy-ruhiy quvvat berib turibman, xolos. Bilamizki, hayot yo‘limiz silliq, tekis emas. Uning ustiga atrofimizda soxta mulozimlar parvona, sal qoqilsang etagingdan tortishga shay turibdi. Shoirona aytganda, bu dunyoning nokaslari ko‘p, ezgu ishlaringni ko‘rolmaydilar. Shularga befarq bo‘lmay yashash, ijtimoiy hayotda faol bo‘lish osonmas.

Mirzabek ham hayotning mashaqqatli qiyinchiliklari bilan kurashib, dam yiqilib, yana o‘rnidan turib, o‘ziga ishonch bilan nurli manzillar sari bormoqda. Hali amalga oshmagan katta orzusi, erishilmagan yuksak maqsadlari oldinda.

Men bularni nima uchun yozayapman?

Mirzabekni ko‘proq el bilsin, uning mehnati va ijodiga munosib baho berilsin, deyman. Zero, u endi nafaqat o‘z oilasi, balki qishlog‘imiz, tumanimiz faxriga aylanib bormoqda.

Men ana shunday shogirdim borligidan hamisha faxrlanib kelaman.

Ustozning eng katta yutug‘i — shogirdining kamoli. Shunday emasmi?

Sultonboy DEHQONOV,
jurnalist

YOSHLAR YUTUG‘I

XALQARO TANLOVDA — MUNOSIB NATIJA

Yoshlarning xalqaro tanlovlarda erishayotgan yutuqlari haqida gap ketganda, avvalo, ularning ortida turgan mehnat va izlanish haqida o‘ylaymiz. Chunki bunday katta maydonda munosib natijaga erishish uchun faqat iste’dodning o‘zi yetarli emas. Buning uchun tanlangan yo‘nalishda tinimsiz o‘rganish ham kerak. Bugun dunyoning turli mamlakatlarida o‘tkazilayotgan tanlovlarda yoshlarimizning faol ishtirok etayotgani esa ana shu jihatdan e’tirofga loyiqdir.

Yaqinda Indoneziyaning Jakarta shahrida o‘tkazilgan “Festival Handai Indonesia” xalqaro indonez tili musobaqasida O‘zbekiston vakillari ham munosib natijalarga erishdi. Bu yilgi festivalda 79 ta davlatdan 542 nafar ishtirokchi qatnashdi. Saralash bosqichlari yakuniga ko‘ra, 25 nafar ishtirokchi final bosqichiga yo‘llanma oldi. Ma’lumot uchun, “Festival Handai Indonesia” ishtirokchilar uchun nafaqat o‘z bilimini sinash, balki indonez tili va madaniyatini yanada chuqurroq o‘rganish imkonini beradigan xalqaro tanlov hisoblanadi. Turli davlatlardan kelgan yoshlarning bir joyda jam bo‘lishi esa til o‘rganishning insonlarni bir-biriga yaqinlashtirishdagi ahamiyatini yana bir bor ko‘rsatadi.

Quvonarlisi shundaki, festivalda Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining 2-kurs indonez tili talabalari— Odiljonova Sarvina va Abdumalikova Afro‘za O‘zbekiston nomidan qatnashishdi. Har ikki ishtirokchi ham o‘z yo‘nalishida munosib natija qayd etdi. Jumladan, Abdumalikova Afro‘za “Berpantun” she’riy janri yo‘nalishida “Terbaik I” — faxrli birinchi o‘rinni, Odiljonova Sarvina esa “Berpuisi” — she’r va monolog yo‘nalishida “Terbaik II” — ikkinchi o‘rinni qo‘lga kiritishdi va pul mukofoti bilan taqdirlanishdi.

O‘zbekistonlik ikki yosh talabaning bir vaqtning o‘zida xalqaro festival finalida sovrinli o‘rinlarni qo‘lga kiritgani quvonarli natija. Bu natijalar orasida biz, bekobodliklar uchun Odiljonova



Abdumalikova Afro‘za



Odiljonova Sarvina

Sarvinaning yutug‘i eng e’tiborlisidir. Zero, xalqaro maydonda O‘zbekiston nomini munosib himoya qilgan yoshlar safida Bekobod farzandining ham borligi faxrimizni yanada oshiradi. Sarvinaning Jakarta shahridagi nufuzli festivalda ikkinchi o‘rinni egallagani — uning shaxsiy yutug‘i bilan birga, tug‘ilib-o‘sgan tumani uchun ham e’tirofga loyiq natijadir. Qahramonimizning yutug‘iga shu nuqtayi nazardan qaraydigan bo‘lsak, bu faqat bir tanlovda qo‘lga kiritilgan ikkinchi o‘rin emas. Bu yoshlarning o‘z qiziqishi ortidan borib, yangi tillarni o‘rganishi va o‘z bilimini dunyo miqyosida sinab ko‘rishi mumkinligining amaliy misolidir. Indonez tilini o‘rganishni boshlagan talaba bugun Jakarta shahridagi xalqaro festival sahnasida O‘zbekiston nomidan ishtirok etmoqda.

Yoshlarning bunday muvaffaqiyatlari qancha ko‘p bo‘lsa, ularning ortidan kelayotgan avlodning o‘ziga bo‘lgan ishonchi ham shuncha ortadi. Sarvinaning bu yutug‘i hali ko‘plab yangi natijalarning boshlanishi bo‘lsin. Biz esa qahramonimizni xalqaro tanlovdagi munosib natijasi bilan tabriklaymiz. Unga kelgusidagi o‘qish va izlanishlarida muvaffaqiyat va omad tilaymiz.

Lobar JUMABOYEVA

KITOB TAQDIMOTI



“HIKMATLAR ICHIDAGI BAXT”

O‘qigan kitobimiz insonni o‘z-o‘zini anglashga, hayotga teranroq nazar bilan qarashga undasa, uning qadri yanada ortadi. Ayniqsa, bugungi shiddatli zamonda inson qalbiga osoyishtalik, tafakkuriga teranlik, hayotiga ma’no baxsh etadigan asarlarning o‘rni beqiyos. O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi Anorqul Rustamovning yaqinda nashrdan chiqqan “Hikmatlar ichidagi baxt” kitobi ham ana shunday ma’naviy izlanishlar mahsuli sifatida e’tiborga loyiq.

Anorqul Rustamov qalamiga mansub asarlar mazmun-mohiyati va mavzu ko‘lami bilan bir-biridan farqlanadi. Muallifning “Tong qo‘shig‘i” (2009), “Fikrlash saboqlari” (2011), “Oilani qanday boshqarish kerak” (2015), “Omadga eltuvchi yo‘l” (2017), “Sabrning tagi” (2019), “Nafs girdobi” (2020), “Nafs girdobi – 2” (2022), “Baxtli kelajakka erishish usullari” (2023) kabi kitoblari uning ijodiy izlanishlari izchil davom etib kelayotganidan dalolat beradi.

Yangi kitobda esa muallifning dunyoqarashi, hayotiy kuzatuvlari va ma’naviy izlanishlarida yangi bir bosqich ko‘zga tashlanadi. Asarning nomidayoq muallifning asosiy niyati mujassam: inson baxtni uzoqdan izlamasligi, balki hayotning o‘zida, hikmat bilan yashash, sabr, shukr, halollik va ezgulik kabi qadriyatlarni anglash orqali baxtga erishishi mumkin.

Kitobning muhim jihatlaridan biri — undagi fikrlarning Qur’oni Karim suralari mazmuni va oyatlaridan keltirilgan iqtiboslar bilan uyg‘un holda rivojlantirilganidir. Bu yondashuv asarning ma’naviy salmog‘ini oshirib, muallif ilgari surayotgan fikrlarni yanada chuqurroq mushohada qilishga undaydi. Hikmatlardan keyin keltirilgan hikoyat va rivoyatlar esa quruq nasihat ohangining oldini olib, o‘quvchini fikr ustida to‘xtashga, undan hayotiy xulosa chiqarishga chorlaydi.

Kitob haqida fikr bildirgan Abdusamad Jumaboyev ham muallif ijodidagi ushbu o‘zgarishga alohida e’tibor qaratadi. Uning ta’kidlashicha, Anorqul akaning yangi kitobida avvalgi asarlarida uchrab turgan takrorlar deyarli ko‘zga tashlanmaydi. Bu esa ijodkorning o‘z ustida izlanib, fikr va ifoda imkoniyatlarini kengaytirganini ko‘rsatadi.

Darhaqiqat, ijodkor uchun eng katta yutuqlardan biri — o‘zini o‘zi takrorlamaslik. Bir fikrni turli shakllarda qayta aytishdan ko‘ra, hayotga yangicha nigoh bilan qarash, o‘quvchini yangi mushohadaga yetaklash ijodkor mahoratining muhim belgilaridan biridir. “Hikmatlar ichidagi baxt”da ana shu jihat yaqqol seziladi.

Xulosa qilib aytganda, “Hikmatlar ichidagi baxt” — o‘quvchini shunchaki mutolaaga emas, o‘z qalbi va hayoti haqida mushohada yuritishga chorlaydigan asar. Undagi hikmat, sabr, shukr va ezgulik haqidagi fikrlar insonni ma’naviy kamolotga, hayotning asl qadriyatlarini anglashga undaydi. Shu jihatdan kitob keng kitobxonlar ommasi uchun foydali va o‘qishga arzigulik ma’naviy manba bo‘la oladi.

TAHRIRIYAT



ALIFBODA YURT MADHI

(Muvashshah)

A harfdan boshlanar Allohning nomi,
Bismilloh – Odamning ilk so‘z – kalomi.
Vo ajab, dunyoda yurtlar bisyor-u
Go‘zal Vatanim Sharq dorussalomi.

Dalvarzin, Mirzacho‘ldan faqat qoldi nom,
Yerlari dasht emas, hosildor makon.
Yo rab, shimolida gullasa bodom,
Janubda dovuchcha terar bolajon.

Zomin tog‘larining tarovatidan
Ilgingda charchog‘-u mudroq qolmagay.
Yil bo‘yi ona yer saxovatidan
Karvonlarning rizqi ado bo‘lmagay.

Lobar qiz-juvonlar millatning ko‘rki,
Marg‘ilonda atlas, adras to‘qiydi.
Ne sirki, bag‘rida bolasin ko‘shki,
Ona uning taftida kitob o‘qiydi.

Poyoni ko‘rinmas obod maskanlar,
Rosti, ular mening qalbim parchasi.
Samarqand, Buxoro, Xiva, Qo‘qonlar –
Tarix sahnasiga dilning darchasi.

Urganch-u Namangan, Nukus, Andijon,
Farg‘ona, Navoiy, Qarshi, Guliston –
Xudodan berilgan jannatiy makon,
Elin turmushida baxti namoyon.

Yurt poytaxti erur Toshkenti azim,
Yashnayotgan ulug‘ maskan kun sayin.
O‘z xalqim, millatim deya elboshim,
Qadam tashlar, olg‘a boshlar tinmayin.

G‘arb-u sharqda yorqin nur soch, yulduzim,
Har kaft tuprog‘ingga fidoman o‘zim!

Karimqul MAVLONOV,
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi

KO‘RGIM KELADI

Erta tong shamoli hislarim tuyib,
Yuzlarim siypalab, asta yeladi.
Shu onda xayoldan o‘tkazdim bir o‘y
Zulfiyaxonimni ko‘rgim keladi.

Sadoqat kuychisi o‘zingiz deya,
Qalbim siz tomonga talpinaverar.
Bahorni sevguvchi qizingiz deya,
Zulfiyaxonimni ko‘rgim keladi.

Deraza ortidan u mangu daraxt
Nish urib, kurtaklab, ochilaverar.
O‘rik gullaridan tuhfa qilib naqd,
Shoira qizingman degim keladi.

Orzu osmonida bulutdek uchib,
Xayolan sochlarin o‘rgim keladi.
Tabarruk qo‘lidan zilol suv ichib,
Zulfiyaxonimni ko‘rgim keladi.

Bog‘larda, qirlarda lolalar undi,
Moychechak atri ham har yon yeladi.
Yalpizlar bag‘rida shudringlar indi,
Zulfiyaxonimni ko‘rgim keladi.

Shoirlik qalamin qo‘limga olsam,
Ko‘nglimning tubida bir o‘y turadi.
Ishonchdan porlagan ko‘zni ko‘rganda,
Zulfiyaning qizi – bu gap yuradi.

Ruxshonabonu RASULOVA

NUR SHODASI

Nurga to‘lgan hur o‘lkam,
Hamma yurtlardan ko‘rkam.
Yil, faslingda bor ko‘klam,
Tengi yo‘q bir o‘lkamsan.

Quyosh senga talpinar,
Oydan olib xushxabar.
Bag‘ringga nur yog‘dirar,
Yuzing yorug‘ o‘lkamsan.

Yoshlaringga yo‘l berib,
Tadbirkorga qo‘l berib,
El-ulusga erk berib,
Yashnayotgan o‘lkamsan.

Qishloq, shahar obod yurt,
Tenglar aro bag‘ring but,
Fayz-baraka yog‘ar qut,
Sen shundayin o‘lkamsan.

Tongda bayot navosi,
Eling maqom shaydosi,
Bag‘ringda nur shodasi,
Shunday go‘zal o‘lkamsan.

Bahodir ABDUVALIYEV,
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi

YANGI O‘ZBEKISTON — YANGI AVLODI

Yangi O‘zbekiston — yangi avlodi,
Siz bilan porlaydi aziz kelajak.
Yangi o‘quv yili muborak bo‘lsin,
Qalblarda jo‘sh ursin eng ezgu tilak!

Yangi zafar, yangi quvonch va omad,
Hamisha sog‘ bo‘ling, boshingiz omon.
Ilm bilan yuksalsin ezgu niyatlar,
Orzulari sari yo‘l bo‘lsin ravon.

Yosh avlod, sizlarga buyuk bir burch bor —
El-yurt ishonchini oqlamoq lozim.
Vatanga sadoqat qalbda bo‘lsin yor,
Ona yurt oldida aylang siz tazim.

Go‘zal kelajag-u porloq istiqbol,
Ilmli, tarbiyali avlodni chorlar.
Hayot yo‘lingizda kulib baxt-iqbol,
Ota-ona, ustoz ko‘nglini chog‘lar.

Siz — yurt ertasisiz, buyuk avlodsiz,
Orzular qanoti siz bilan baland.
Ilm ila bezansin bosgan izingiz,
Baxtla kamol toping, ey aziz farzand!

Inobat ABDUQODIROVA,
Bekobod tumani 37-maktabning
ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

EL XIZMATIDA

Bekobod tumani “Nilufar” folklor jamoasi yakkaxoni, “Do‘stlik” ordeni sohibasi O‘g‘iloy Xolmatovaga bag‘ishlanadi.

Zafarqo‘rg‘on elida,
Yangrar shirin bir navo.
Yurtimiz bayramida,
Taralar go‘zal sado.

Doira-la aytib o‘lan,
Davralarga berar fayz.
Har davrada zavq bilan
Kuylar dildan yorug‘ yuz.

“Nilufar” jamoasining
U bilan obro‘, sha’ni,
Milliy kuy, yallasining
Oboddir har maskani.

Yurtboshimiz yonida,
Kuyladi yalla, qo‘shiq.
Yurt ishqi bor tanida,
Bor mehrin qo‘ydi qo‘shib.

Ayol qalbi — misli bog‘,
Gullab yashnar ijodi.
Bolasin uchun chiroq
O‘g‘iloyning avj—dodi.

Yillar osha yangrasin,
Betakror kuylaringiz.
Yuraklarda yashasin,
Qutlug‘, go‘zal nomingiz!

Tolmang aslo xizmatdan,
Yangrasin ovozingiz.
San’atning osmonida
Porlasin yulduzingiz!

Bashorat YO‘LDOSHEVA,
Mehnat faxriysi

VATANNI SEVING

Har tomoni gullab yashnagan qarang,
Vatanni onadek asrab-avaylang,
Va do‘stim shu vatan koriga yarang,
Vatanni seving, do‘st, vatanni seving.

Ko‘taring ko‘klarga vatan bayrog‘in,
Ko‘zingizga suring vatan tuprog‘in,
Hattoki daraxt ham sevar yaprog‘in,
Vatanni seving, do‘st, vatanni seving.

Vatanni madh etib kuylasin hofiz,
Osmono‘par bino barpo eting siz,
Ayting vatan uchun nima qildik biz,
Vatanni seving, do‘st, vatanni seving.

Ey vatan! Senga she’r bitmay bo‘larmu,
Ulug‘ noming jo‘shib aytmay bo‘larmu,
Shu go‘zal vatanni sevmay bo‘larmu,
Vatanni seving, do‘st, vatanni seving.

Bu yurtda tug‘ilgan qancha ulug‘ zot
Shularga munosib bo‘ling yosh avlod
Takror aytar sizga, ustoz Dilmurod
Vatanni seving, do‘st, vatanni seving.

Onani seving, do‘st, ona bir dona,
Vatanni seving, do‘st, vatan bir dona,
Sizga aytar so‘nggi so‘zim yagona,
Vatanni seving, do‘st, vatanni seving.

Dilmurod SATTOROV,
Bekobod tumani 42-maktabning
ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

G‘OLIBLAR SAFIDA

BEKOBODLIK DIYORBEK — RESPUBLIKA CHEMPIONI!

“Besh tashabbus olimpiadasi” doirasida workout sport turi bo‘yicha musobaqaning Respublika bosqichi yuqori saviyada tashkil etildi. Murosasiz va qizg‘in kechgan bahslarda respublikamizning barcha hududlaridan tashrif buyurgan eng kuchli sportchilar kuch, chidamlilik, jismoniy tayyorgarlik va texnik mahorat borasida o‘zaro bellashdilar.

Quvonarlisi, Toshkent viloyati sharafini munosib himoya qilgan Bekobod tumani Turon mahallasida istiqomat qiluvchi yosh sportchi Diyorbek Turdaliyev musobaqada yuksak natija qayd etib, g‘oliblikni qo‘lga kiritdi.

Diyorbekning ushbu muvaffaqiyati ortida tinimsiz mehnat, muntazam mashg‘ulotlar, kuchli iroda va qat’iyat mujassam. U bellashuvlar davomida o‘zining jismoniy tayyorgarligi, chaqqonligi va texnik mahoratini namoyon etib, munosib ravishda eng yuqori pog‘onani zabt etdi.

Qahramonimizning Respublika chempionligini qo‘lga kiritgani — nafaqat uning shaxsiy yutug‘i, balki Bekobod tumani, xususan, Turon mahallasi yoshlari uchun ham katta faxrdir. Ushbu g‘alaba tengdoshlariga sport bilan muntazam shug‘ullanish, sog‘lom turmush tarziga amal qilish va ulkan marralar sari intilish uchun munosib namuna bo‘lib xizmat qiladi.

Musobaqa yakunida g‘olib va sovrindorlar diplom, medal hamda esdalik sovg‘alari bilan taqdirlandilar. Yosh sportchining bu yuksak natijasi Bekobod tumanida yoshlarni sportga keng jalb etish, ularning iste’dod va salohiyatini ro‘yobga chiqarish borasida olib borilayotgan tizimli ishlarning amaliy ifodasidir.

Bekobodlik chempion Diyorbekni g‘alaba bilan muborakbod etamiz! Kelgusidagi musobaqalarda ham Vatanimiz bayrog‘ini baland ko‘tarib, yanada ulkan zafarlarni qo‘lga kiritishiga tilakdoshmiz!



BIZNING JAMOA — VILOYAT G‘OLIBI!



“Besh tashabbus olimpiadasi” doirasida gandbol sport turi bo‘yicha Toshkent viloyati bosqichi bo‘lib o‘tdi. Unda viloyatning tuman va shaharlaridan saralab olingan iqtidorli yoshlar ishtirok etib, gandbol bo‘yicha o‘z mahorati, jismoniy tayyorgarligi va jamoaviy o‘yin ko‘nikmalarini namoyish etdilar.

Yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ular o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini keng targ‘ib qilish, sportga bo‘lgan qiziqishini oshirish, shuningdek, iqtidorli yosh sportchilarni aniqlash va qo‘llab-quvvatlashda “Besh tashabbus olimpiadasi” muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Murosasiz va qizg‘in kechgan bahslar yakuniga ko‘ra, Bekobod tumani jamoasi barcha raqiblarini mag‘lub etib, faxrli birinchi o‘rinni egalladi. Shu tariqa, bizning jamoa gandbol bo‘yicha “Besh tashabbus olimpiadasi”ning Respublika bosqichida Toshkent viloyati sharafini himoya qilish huquqini qo‘lga kiritdi.

Endi navbat — Respublika bosqichiga! Bekobod tumani jamoasiga mamlakat miqyosidagi bahslarda ham g‘oliblik sari dadil odimlashini tilaymiz. Yosh sportchilarimizga omad va zafar yor bo‘lsin!

Jahongir SULTONOV, Bekobod tumani Sport maktabi yo‘riqchi-uslubchisi

“METOD” KUNI

FAOLIYAT TAHLILI VA YANGI VAZIFALAR



Bekobod tumanida maktab maslahatchilarining “Metod” kuni munosabati bilan monitoring tadbiri o‘tkazildi. Unda maktab maslahatchilarining faoliyati, amalga oshirilayotgan ishlarning samaradorligi hamda kelgusidagi vazifalar atroflicha tahlil qilindi.

Monitoring davomida maslahatchilarning hafta davomida bajargan ishlari sarhisob qilinib, belgilangan vazifalarning ijrosi, o‘quvchilar bilan olib borilayotgan ma’naviy-ma’rifiy ishlar va ta’lim jarayonini qo‘llab-quvvatlash borasidagi faoliyatiga baho berildi. Shuningdek, kelgusi haftada amalga oshirilishi lozim bo‘lgan vazifalar belgilab olindi.

Tadbir kun tartibidan “Jadidlar izidan”, “Turon teatri”, “Prezident iqtidorli farzandlari” loyihalarini samarali tashkil etish, tarmoq to‘garaklarini yo‘lga qo‘yish, o‘quv rejalari bilan ishlash, yillik, oylik va haftalik ish rejalarini to‘g‘ri taqsimlash hamda kun mavzulari asosida ishlarni mazmunli tashkil etish masalalari ham o‘rin oldi.

Monitoring jarayonida maktab maslahatchilari faoliyatida uchrayotgan ayrim muammo va kamchiliklar ham o‘rganildi. Ularni bartaraf etish, ish samaradorligini oshirish hamda mavjud imkoniyatlardan unumli foydalanish yuzasidan amaliy tavsiya va takliflar berildi.

Yakunda maktab maslahatchilariga kelgusidagi faoliyatni yanada samarali tashkil etish, belgilangan vazifalarni o‘z vaqtida va sifatli bajarish, loyihalar hamda ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni mazmunli yo‘lga qo‘yish yuzasidan tegishli ko‘rsatmalar berildi.

Bunday monitoring tadbirlari maktab maslahatchilarining faoliyatini muntazam tahlil qilish, tajriba almashish va ish jarayonidagi muammolarga amaliy yechim topishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Sanjar SULTONOV,
Bekobod tumani “Kelajak markazi” direktori

TAHRIRIYATGA MAKTUB

MINNATDORCHILIK

Hurmatli saxovatpesha va fidoyi yurtdoshlar!

Maktabimizning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ta’lim-tarbiya jarayonini yanada takomillashtirish hamda o‘quvchilarimiz uchun munosib sharoitlar yaratish yo‘lidagi ezgu tashabbuslarimizni qo‘llab-quvvatlab, amaliy yordam va beg‘araz ko‘mak ko‘rsatayotgan barcha saxovatli yurtdoshlarimizga chuqur minnatdorchiligimizni bildiramiz.

Ayniqsa, maktabimiz uchun kolonka va ovoz kuchaytirgich xarid qilinishida amaliy yordam ko‘rsatgan 11-sinf bitiruvchilariga alohida tashakkur izhor etamiz. Shuningdek, maktabni tamomlaganining 40 yillik yubileyini nishonlagan mehmonlar tomonidan maktabimizga ko‘chma kompyuter hadya etilgani ham jamoamiz uchun quvonchli va unutilmas voqea bo‘ldi.

Maktabimiz rivojiga o‘z hissasini qo‘shib kelayotgan mahalladoshlarimiz — maktabni tamomlaganining 10 yillik yubileyini nishonlagan Umarov Bekzod (marhum), Qo‘ldoshev Mirsoli va Subanov Hayrulla kabi saxovatli insonlarning ezgu ishlari ham tahsinga loyiq. Ularning ko‘magi tufayli o‘qituvchilar xonasidagi jihoz va shkaflar yangilanib, pedagoglar uchun yanada qulay mehnat sharoiti yaratildi.

Bundan tashqari, Egamqulov Turdali, Mamatqulov Nodir va Tojiboyev Ilyosga alohida minnatdorchiligimizni bildiramiz. Ular maktabimizdagi montaj ishlarini beg‘araz va haq talab qilmasdan bajarib, o‘z vaqt va mehnatlarini ta’lim maskanimiz obodligi va rivojiga baxshida etdilar.

Darhaqiqat, ta’lim maskaniga ko‘rsatilgan har qanday ko‘mak — kelajak avlodga, uning ta’limi va tarbiyasiga qo‘shilgan munosib hissadir. Sizlarning e’tiboringiz, saxovatingiz va beg‘araz yordamingiz biz pedagoglar uchun katta dalda bo‘lib, ezgu ishlarni yanada davom ettirishga undaydi.

Maktabimiz jamoasi nomidan barchangizga samimiy minnatdorchilik bildiramiz.

Sizlarga mustahkam sog‘lik, oilaviy xotirjamlik, ishlaringizga rivoj tilaymiz. Ezgu amallaringiz bardavom bo‘lib, xonadonlaringizdan fayz-u baraka arimasin!

Hurmat bilan,
Bekobod tumani 19-maktab ma’muriyati

YANGI BEKOBOD
Muassis: Bekobod tumani hokimligi

Bosh muharrir
Sarvinoz SHERALIYEVA

Manzilimiz:
"Zafar" shaharchasi, hokimiyat binosi, 3-qavat.
tel: (998) 55 902 59 94
elektron manzilimiz:
E-mail: yangibekobod@umail.uz

Toshkent viloyati Matbuot va axborot boshqarmasida 2011-yil 12-sentyabrda 03-023 raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr ko‘rsatkichi 7013.

Gazeta tahririyat kompyuter bazasida terilib, sahifalandi. Buyurtma №
Adadi 1825 nusxa. "NISO NASHRIYOT VA MATBAA UYI" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Korxona manzili: Toshkent viloyati, O‘rta Chirchiq tumani,"Oq ota" Q.F.Y. Mash’al mahallasi, Markaz-1
Bosishga topshirish vaqti: 10:00.
Bosishga topshirildi: 11:00.

ISSN 2091-5497